



ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

STRUCTURAL DIVISION AND USAGE OF DIALECTAL VOCABULARY OF THE UZBEK LANGUAGE

Lobar Avazova Aktamovna

Teacher at School No. 285

Yangiheyot District

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: local speech, dialect, dialectism, dialectal vocabulary, transcription.**Received:** 16.10.25**Accepted:** 17.10.25**Published:** 18.10.25**Abstract:** The article analyzes the structural composition of Uzbek dialectal vocabulary and its usage in various dialects and literary works. Different approaches of dialectologists and the examples they provided are examined. The presented information is based on the theoretical foundations of Uzbek dialectology.

O‘ZBEK TILI DIALEKTAL LEKSIKASINING TARKIBIY BO‘LINISHI VA QO‘LLANILISHI

Lobar Avazova Aktamovna

285-maktabda o‘qituvchi

Yangiheyot tumani

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: sheva, dialekt, dialektizm, dialektal leksika, transkripsiya.**Annotatsiya:** Maqolada o‘zbek dialektal leksikasining tarkibiy bo‘linishi hamda ularning turli shevalar va badiiy asarlarda qo‘llanilish xususiyatlari tahlil qilingan. Dialektolog olimlarning turlicha yondashuvlari hamda ular tomonidan keltirgan misollar asosda solishtirilib, tahlilga tortilgan. Keltirilgan ma’lumotlar o‘zbek dialektologiyasining nazariy tamoyillariga tayangan holda yoritilgan.

СТРУКТУРНОЕ ДЕЛЕНИЕ И УПОТРЕБЛЕНИЕ ДИАЛЕКТНОЙ ЛЕКСИКИ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Лобар Авазова Актамовна

Учитель в школе №285

Янгиҳайотский район

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: говор, диалект, диалектизм, диалектная лексика, транскрипция.

Аннотация: В статье рассматривается составная структура узбекской диалектной лексики, а также особенности её употребления в различных говорах и художественных произведениях. Анализируются различные подходы диалектологов и приведённые ими примеры. Представленные сведения изложены на основе теоретических принципов узбекской диалектологии.

O‘zbek tilining dialektal leksikasi deganda ma’lum hududda yashovchi kishilar nutqiga xos bo‘lgan, adabiy til leksikasiga kirmaydigan so‘zlarni tushunamiz. Ma’lum dialekt va sheva vakillariga qo‘llaydigan bunday so‘zlar dialektizmlar deb yuritiladi. Ma’lumki, sheva, dialektlar bir –birlaridan va adabiy tildan dialektal so‘zlar – dialektizmlar orqali farqlanadi. Demak, o‘zbek tili dialektal leksikasining tarkibini dialektizmlar tashkil etadi. Dialektizimlarning bir qancha turlari mavjud, lekin bu turlar o‘zbek dialektologiyasida uzil –kesil tarzda hal etilmagan. Shu sababdan ularni tasnif etishda xilma –xilliklarga yo‘l qo‘yilgan. Masalan, tilshunos olim Hasanboy Jamolxonov o‘zining “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kitobida dialektizimlarning quyidagi turlarini ajratadi:

1. Dialektizim –leksema (nozvo‘y – Sam.~ rayon – ad.t.)
2. Dialektizm –semema (lagan~ tog‘ora (shev.))
3. Leksik –fonetik dialektizim (yo‘q ~ jo‘q)
4. Frazologik dialektizim (ayroni achimas – qipchoq shevalari , ma’nosi : “beparvo”, “loqayd”)
5. Fonetik –fonologik dialektizm (ыс –qurum ~ us-hid,сыз- chiz ~ suz – siz kabi)
6. Grammatik dialektizm (ad.tildagi –miz (shaxs-son affiksi) – Tosh.shevasida –vuz shaklida ishlatiladi)

Dialektologik olim Ahmad Ishayev o‘zining “O‘zbek dialektal leksikografiyasi” kitobida dialektizimlarning ,avvalo, ikki turini ajratadi : Sheva, dialektlardagi dialektizmlar va badiiy asarlardagi dialektizimlar. Bunday ajratishning asosiy sababi, “badiiy asarlaridagi dialektizmlar transkripsiya bilan yozilmagani, uchraydigan joyi, tarqalgan territoriyasi u qadar aniq bo‘lmagani sababli shevalarda dialektizimlarning farqlanishidadir”. Shuningdek dialektizimlarni quyidagi turlarini ajratadi:

1. Sof leksik dialektizimlar (barak (Buxoro) ~ chuchvara (ad.til))
2. Leksik –semantik dialektizimlar (pashsha (Andijon) ~ chivin (ad.til))

3. Etnografik dialektizimlar (jatlyq (Xorazm) –evaraning bolasi)
4. Leksik – fonetik dialektizmlar (djaman ~ yomon, djur ~ yur)
5. Leksik –derivatsion dialektizmlar (dialektal soʻz +ad.t. affiks : djyrчы < djyr- (janjal) + - chy (Jan. Xorazm) janjalkash)
6. Morfologik dialektizmlar (dodamgʻylə (Toshkent) ~ bobomlar (ad.tilda “hurmat maʼnosida”)
7. Frazologik dialektizimlar (olchaəñ olməgə ulʻydy (Toshkent) aldoqchi, firibgar kabi)

Dialektolog olim Samixon Ashirboyev oʻzining “Oʻzbek dialektologiyasi” kitobida dialektizmlarning normalarini boshqacharoq qayd etadi:

1. Ayni bir predmet va tushunchalar shevalarda turli soʻzlar bilan yuritiladi : chəqələ: (Toshkent) ~ byvək (Fargʻona) ~ bala (shim.oʻz. shevalari) – chaqaloq (ad.til)
2. Ayni bir soʻz shevalarda turlicha maʼnoga ega boʻladi: pəshshə Toshkentda chaqmaydigan hashorat, Fargona va Shimoliy oʻzbek shevalarida chaqadigan hashorat.
3. Ayni bir soʻz shevalarda turlicha fonetik variantlarga ega boʻladi : on əkkə (Margʻilon) – oʻn ikki (ad.til); gəldə (Xorazm) – keldi (ad.til)
4. Shevaga xos morfologik elementlarning qoʻllanilishi : ozlugə (Toshkent) – oʻzlari (ad.til)

Koʻrib turganimizdek uchala tilshunosimiz ham dialektizmlarning asosiy 4 turini ajratadi: fonetik, leksik, grammatik va semantik.

Fonetik dialektizmlar – dialekt yoki shevaga xos fonetik – fonologik birliklar tizimi. Fonetik dialektizmlar ikki turga boʻlinadi : a) fonetik – fonologik dialektizimlar ; b) leksik – fonetik dialektizmlar ;

Fonetik – fonologik dialektizm dialektga xos fonemalar tizimidir. Bu tizim muayyan dialektning oʻzigagina tegishli boʻlishi bilan adabiy tilining fonetik – fonologik tizimidan farqlanadi. Masalan, oʻzbek tilining shevalarida jami 13 ta unli qoʻllaniladi. Singarmonizmni yoʻqotgan shevalarda 6 -7 ta, singarmonizimli shevalarda esa 11 unli qoʻllaniladi. Ular qator belgisi asosida zidlanish munosabatida boʻladi: i:↔ ī: , i↔ī , ö↔o , ü↔u , a, ā ↔ä . Bundan faqat e unlisigina mustasno, uning jufti yoʻq. Shevalarda kontrast unlilar baʼzan soʻz maʼnosining farqlanishiga ham xizmat qiladi: i:s hidni (us) ~ īs qurumni (ыs), sīz chizishni (сыз) ~ siz sizni (suz) anglatadi. Biroq hozirgi oʻzbek adabiy tilining fonologik tizimida unli fonemalarning bunday zidlanishi, yaʼni “yoʻgʻonlik” va ingichkalik” belgilari bilan farqlanish yoʻq. Bunga sabab tilshunoslikda fonologik tizimlarning tarixiy taraqqiyotida sodir boʻladigan konvergensiya jarayonidir. Konvergensiya – tarixiy taraqqiyot jarayonida ikki fonemaning qoʻshilib ketishi va bir fonemaga aylanishidir. Demak, qadimgi turkiy va eski turkiy tillarda unli fonemalarning old qator

(ingichka) va orqa qator (yuqori) farqlanish belgisiga asoslangan oppozitsiyalari bo'lgan. Bu oppozitsiyalar eski o'zbek tili davrida ham ma'lum darajada saqlangan, ammo keyinroq bunday zidlanish asta-sekin o'zining fonologik xususiyatini yo'qota borib fonologik jihatdan ahamiyatsiz holga kelgan. Leksik – fonetik dialektizmlar –adabiy tilda bor bo'lgan leksemaning biror shevadagi fonetik tarkibi. Masalan, yigit (ad.orf.) – jigit (qip.lahjada); soch (ad.orf.) – choch (qar.lahjada); Adabiy tilda mavjud leksemalar shevada nafaqat undoshlar ning almashinishi bilan, balki unlilarning almashinishi bilan ham talaffuz etiladi va qo'llaniladi. Masalan, ona (ad.orf.) – ena (qip. lahja); aka (ad.orf.) – oka (qarluq lahja); Ma'lumki,“ fonetik dialektizmlarda emotsional bo'yoq kuchli bo'lmaydi . Bundan tashqari shevaga xos bo'lgan tovushlar sistemasini transkripsiya orqaligina aniq berish mumkin.” Ammo shunga qaramasdan, shevadagi fonetik o'zgachalikni badiiy matnda estetik maqsad bilan foydalaniladi, chunki bunday o'zgachalik ,avvalo, nutqqa jonlilik baxsh etadi, qolaversa, hududiy mansublikni ta'kidlaydi, qahramon nutqining individualligini ta'minlaydi. Bu ,albatta, mahalliy koloritni yaratishga xizmat qiladi. Masalan, “Marmar tosh taxta poyida ikkita kalish juft bo'lib turdi. Kalish egasi Bo'ri polvon onasi qabri boshida bo'ldi. Kalish egasi tizzalab o'tirdi. Bosh egib o'tirdi. Ming'ir – ming'ir qilib duo o'qirdi “. (Tog'ay Murod “Yulduzlar mangu yonadi”)

Yuqoridagi misolda yozuvchi mahalliy koloritni o'quvchiga namoyon qilishda adabiy tilidagi “kovush” so'zi o'rniga fonetik o'zgarishga uchragan shevaga xos “kalish” leksik – fonetik dialiktizmni qo'llaganini ko'rishimiz mumkin.

Grammatik dialektizmlar –biror shevaning o'zigagina xos bo'lgan grammatik shakllari. Masalan, adabiy tilidagi –miz (shaxs –son affiksi) o'rnida Toshkent shevasida –vuz affiksi ishlatiladi :

–Buni qayerdan oldilaring? – deb so'radi Zohid.

–Bratanga etganmiza, qattan oganuvzani, - dedi labi osilgan yigit.

–Ikkoving birga borganmisan?

–Bir xil paytda man borardim, bir xil paytda u borardi, bir xil paytda ikkalovuza borardu.

(Tohir Malik “Shaytanat” III kitob)

Yuqoridagi parchadan “oganuvuzani” so'zini olib tahlil qilsak, “o –ol” (o'zak) + “ –gan –gan” (o'tgan zamon sifatdoshi) + “-uvza – imiz “ (shaxs-son qo'shimchasi) + ”-ni –ni “ (tushun kelishigi affiksi) o+gan+uvza+ni = ol+gan+imiz+ni.

Shuningdek o'tgan zamon sifatdosh –gan affiksini ham shevalarda –mish shaklida uchratamiz. Masalan: “Bo'ri polvon olisdan qabr boshida bir qora soya yurmishini ko'rdi. “Tog'alarim bo'lsa bordir, -deya o'yladi Bo'ri polvon.- Hayit arafasida yo'qlab kelibdida”. Bo'ri polvon ko'ngli uvishib – uvishib ketdi. Shu yotmish bandalar yaqin – yaqinlarda tirik edi, eson-omon edi. Endi esa yo'q...” (Tog'ay Murod “Yulduzlar mangu yonadi”).

Yuqoridagi parchadagi “yurmishini”, “yotmish” soʻzlarida oʻtgan zamon sifatdoshining – mish shaklini uchratamiz. Bu grammatik dialektizm hisoblanib, adabiy tilda –gan shaklida qoʻllaniladi.

Leksik dialektizmlar – shevaga xos, yaʼni dabiyl tilga oʻtgan leksema. Bunday dialektizm yaxlit holda shevaniki boʻladi: toʻppi (Toshkent sh.) –qalpoq (Samarqand, Surxandaryo) –doʻppi (ad.orf.). Masalan, “ Anov changib yotgan un bozori, narigi qoʻqib yotgan jun bozori, huv anuv, katta doʻkon –toʻn bozori, narigi turgan –pichoq bozori bilan qin bozori ,undan oʻtting – qalpoq bozori –da, yurtni buzding –ku...” (“Ravshan” dostoni)

Yuqoridagi misolda “doʻppi bozori” oʻrniga shevadagi leksema ‘qalpoq bozori “ qoʻllangan. Samarqand va Surxandaryo shevalarida “doʻppi” soʻzi “koptok” maʼnosida ishlatiladi. Masalan, “doʻppi tepamiz” (koptok tepamiz), “doʻppim teshildi” (koptogim yorildi) va hokazo. Shuningdek, choʻpchak (Toshkent shahri) – ertak (ad.tilda) qoʻllaniladi: “ Qish kechalari sandalga tiqilib yotarkanman, yalinaman:

- Oyi choʻpchak aytib bering.
- Uxla, bolam, charchaganman,
- Ayta qol-i-ng.
- Xoʻp koʻzingni yumib yotginda, eshit...

Bir bor ekan, bir yoq ekan, qadim –qadim zamonda ...” (Oʻtkir Hoshimov “Dunyoning ishlari” qissasi)

Qarindoshchilik nomlari ham shevalarda turlicha nomlanadi. Masalan: “pochcha” – opaning, ammaning, xolaning eri ~ “jezza” (qip. lahjasi) ~ “yazna” (oʻgʻuz Xorazm, Buxoro); “kelin oyi – akaning xotini, notanish ayollarga hurmat maʼnosida murojaat ~ “kennayi” (Toshkent shevasi) ~ ” yanga”(Samarqand, Qashqadaryo) ~” checha” (qipchoq) : “– Rahmat ,kennayi, boravering. Bugun ancha tuzukman, kelib ovora boʻlib yurmang, Zaynab oʻzini majbur qilib jilmaydi. (Tohir Malik “Shaytanat” III kitob)

Uy hayvonlari ham shevalarda turlicha nomlanadi. Masalan: “pishak” (qip. lahjasi) ~ “mushuk” (adabiy til); “siyir” (qipchoq lahjasi) ~ “inak” (Buxoro, Navoiy sh.) ~ “sigir” (adabiy til); “buqa” (Toshkent sh.) ~ “tana” (qip.lahjasi) ~ “hoʻkiz” (ad.tilda); Leksik dialektizmlar , ayniqsa, dialektal lugʻatlarni shakllantirishda muhim rol oʻynaydi.

Semantik dialektizmlar – u yoki bu leksemaning shevaga xos ,yaʼni adabiy tilga oʻtmagan sememasi. Baʼzan biror dialektdagi soʻz boshqa dialektdagi soʻz bilan yoki adabiy tilidagi soʻz bilan shakl jihatidan bir xil boʻladi-yu, ammo leksik maʼnosiga koʻra farq qiladi. Umuman adabiy tilda yoki biror sheva, dialektda mavjud boʻlgan baʼzi soʻzlar boshqa bir sheva, dialektda oʻzgacha maʼnoda qoʻllaniladi. Bunday soʻzlar shuning uchun ham leksik-semantik dialektizmlar deyiladi. Masalan, “ pashsha” va “chivin” soʻzlari shevada ham, adabiy tilda ham qoʻllaniladi, ammo

“pashsha” adabiy til va Toshkent shevasida chaqmaydigan hashorat, Farg‘ona va Shimoliy o‘zbek shevalarida chaqadigan hashorat, “chivin” esa aksincha. Masalan: “Yarim kecha bo‘lib qolgan, atrof – jimjit. Faqat olislarda it uliydi. Ayvon to‘sinidagi uzun mixga ilig‘liq lampochka xira nur taratadi. Chiroq atrofida o‘ralashgan chivinlar bir zum tinmaydi. Hovlining yarmigacha ariq tortib ekilgan qulupnay pushtalari orasida suv yaltiraydi.” (O‘tkir Hoshimov “Urushning so‘nggi qurboni”)

Yuqoridagi misolda tekstdan ma‘lumki, tunda chiroq atrofida chivin, ya‘ni chaqadigan hashorat bo‘ladi. Demak, yozuvchi o‘z asarida chivinning adabiy tilidagi ma‘nosidan foydalangan. Yana bir misolni ko‘raylik:

Davlat qo‘nsa bir chibinning boshiga

Semurg‘ qushlar salom berar qoshiga

Quloq soling Boysari nolishiga

Qalmoq borib qo‘nsam Chilbir dashiga (Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li “Alpomish”)

“Alpomish” dostoni qipchoq sheva vakillarining xalq og‘zaki ijodi namunasi hisoblanadi. Parcha matnida ham qipchoq shevasining o‘ziga xos xususiyatlari aks etgan: “chibin – chivin”, “dashiga – dashtiga”. Qipchoq sheva vakillarida “chivin” chaqmaydigan hashorat. Demak, “Alpomish” dostonidan olingan yuqoridagi parchada “chivin” leksemasining adabiy tilidagi ma‘nosi emas, boshqa ma‘nosi qo‘llanilgan.

Demak, o‘zbek tili leksikasi deganda, o‘zbek tilining qarluq, qipchoq, o‘g‘uz lahjalariga oid sheva yoki shevalar guruhining yoxud barcha shevalarning leksik boyligini tushunishimiz lozim ekan. O‘zbek tili dialektal leksikasi xuddi o‘zbek adabiy tili leksikasi kabi o‘zbek xalqi so‘z boyligining bebaho xazinasidir. Unda o‘zbek xalqining ko‘p asrlik tarixi, madaniyati, urf-odatlar, etnik shakllanishi, ilk og‘zaki adabiyot namunalari aks etadi. Shu sababli dialektal leksika faqat tilshunoslar uchungina emas, balki tarixchilar, etnograflar, adabiyotshunoslar uchun ham qimmatli manbadir. Dialektal leksika botaniklar, zoologlar, qishloq xo‘jaligi mutaxassislari va boshqa ko‘pgina kasb-hunar bilan shug‘ullanuvchilar uchun ham juda ahamiyatlidir. Chunki unda kasb-korlarning turli sohalar bilan bog‘liq bo‘lgan hozirgi adabiy tilda qo‘llanmaydigan dialektal professionalizmlarga oid muhim so‘zlar, aniqroq qilib aytganda shevalarimizdagi paxtachilik, pillachilik, bog‘dorchilik, shuningdek uy-ro‘zg‘or buyumlari, oziq-ovqat, to‘y- marosim hamda xalq tabobatiga oid so‘z va terminlar mahalliy hayvonot va nabodot nomlari o‘z aksini topgan bo‘ladi. Demak, o‘zbek tili dialektal leksikasi jamiyatimizning barcha tarmoqlari uchun ahamiyatli ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013
- 2.Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – T.: Nodirabegim, 2021

3. Azimov I., Rahmatov M. Qadimgi turkiy til. T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005
4. Ishayev A. O'zbek dialektal leksikografiyasi. –T.: Fan, 1990
5. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: O'zbekiston milliy nsiklopediyasi, 2013
6. Fayzullayev A. O'zbek tili va adabiyoti, 1975
7. To'ychiboyev B. O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. – T.: O'qituvchi, 1996
8. Jo'rayev B. Yuqori Qashqadaryo o'zbek shevalari leksikasi . –T.: 1966
9. Hoshimov O'. Dunyoning ishlari. www. Ziyouz.com. kutubxonasi
10. Tohir Malik. Shaytanat. III kitob, Sharq ,1997
11. Tog'ay Murod. Tanlangan asarlar I jild, Sharq ,2008
12. Alpomish. –T.: Fan, 2018